VOLUME-1, ISSUE-6

# OLIY TA'LIM TIZIMIDA RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

Ilmiy rahbar: PHD **N.Fayziyeva**
**Mannobov Farruh**. TMI Magistratura I bosqich talabasi.

**Anotatsiya**: Ushbu tezis Oliy ta'lim tizimida raqobat muhitini shakllantirish orqali ta'lim sifatini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, ta'lim tizimidagi muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha yechimlar, shuningdek xulosa va takliflarni taqdim etadi.

**Tayanch so'zlar:** Oliy ta'lim tizimi, Oliy ta'lim muassasasi, ta'lim sifati, xalqaro hamkorlik, talaba, professor o'qituvchi, moddiy texnik bazasi.

Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish uning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, malakali kadrlar tayyorlash, o'qitish tizimini sifatini oshirish va unga mos raqobat muhitini yaratish orqali amalga oshiriladi. Ushbu masalani samarali amalga oshirishda oliy ta'lim tizimini baraqaror rivojlanib borishi, malakali oq'ituvchi professorlarni tayyorlash va moddiy texnik bazasini yaxshilash orqali erishiladi. Bunda turli xil tashqi va ichki omillarni hisobga olish muhim hisoblanadi.

1. Kadrlar malakasini oshirish : Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash shunigdek ularga munosib haq to'lash tartibini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.
2. Oliy ta'lim muassasalarini moddiy texnik bazasini yaxshilash: Darslarni sifatli tashkil etishda talabalar va o'qituvchilarga yaxshi sharoitlar yaratish muhim hisoblanadi. Misol uchun, dars xonalarni barcha kerakli texnikalar bilan ta'minlash. Axborot resurs markazlaridagi kitoblarni yangilash va ularni hajmini oshirish.
3. Raqoabat muhitini shakllantirish: Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhitini shakllanishi talimi sifatini ham oshiradi va bu bilan mamlakatga kerakli kadrlar ham o'z sohasida yetakchi mutaxassis bo;lish imkoniyati yaratiladi.
4. Xalqaro hamkorlik: Oliy ta'limda ta'lim sifatini oshirish uchun chet el oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish va o'qituvchi professorlarni jalb qilish va shuningdek universitetlar talabalari almashinuvini yo'lga qo'yilsa, bu ham oliy ta'lim sifatini yaxshilashga yardam beradi.
5. O'qituvchilar obro'sini oshirish: 2022-yil 20-dekabrdagi Prezident Murojaatnomasining eng muhim jihatlaridan biri sifatida o'qituvchilarning jamiyatdagi maqomini, sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilishni Konstitutsiyada alohida belgilash zarurligi to'g'risidagi taklifini ta'kidlab o'tish kerak. Chunki, ta'lim sifatini oshirishni oldimizga maqsad qilgan ekanmiz, bu ishlar birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalardan biridir.
6. O'qitishning yangi usullarini qo'llash: Ayniqsa, ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalarini joriy etish, talabalarning bilimini mustahkamlash uchun o'qish hamda amaliyot jarayonining mujassamligini ta'minlash, yangi zamonaviy laboratoriya uskunalarini olib kelish, professor-o'qituvchilarning tajribasini oshirish, o'quv jarayoniga yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlarining professorlarini jalb qilish kabi namunaviy ishlar olib borilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki , Oliy ta'lim tizimda ta'lim sifatini oshirish uchun raqobat muhitini shakllantrish shuningdek oliy ta'lim muassasalari iqtisodiy ahvolini

yaxshilash, o’qituvchi va talabalar uchun yetarli shaoitlar yaratilsagina ta’lim sifatini yaxshilash mumkin,

**Foydalanilgan adabiyotlar** :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. Toshkent 20.12.2022-yil

2. Bayrambay Otemuratov, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti rektori. “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishning muhim yo‘nalishi” maqola . 22.12,2022 yil

3. www.president.uz (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy vebsayti)

4. www.tfi.uz (Toshkent moliya institutining rasmiy veb-sayti)